

FACTORS OF THE USE OF ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MILITARY EDUCATION UP TO THE CALL

Mirsaotov Mirziyad Mirsobit ugli

TSPU named after Nizami

Specialty "military education to the call"

Phase II undergraduates

ANNOTATION

In the address of the president of the Republic of Uzbekistan to the Supreme Assembly, it was recognized that our country entered the stage of innovative development in order to achieve a modern rise. "Innovation means the future. We build our great future... it is on the basis of innovative ideas that we must start.

Innovatsion rivojlanish va raqamli iqtisodiyot yo'liga o'tishimiz beziz emas. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oyaga, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi"¹. Yangilanayotgan O'zbekistonda barcha jabhalarda yangilik, izlanish va yangicha fikrlar va zamon talablariga mos ravishda faoliyat olib borish eng muhim masaladir.

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek shiddat bilan rivojlanib borayotgan bu davrda yangi fikr, yangi g'oya va albatta innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyulda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunining qabul qilinishi "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"² Davlat dasturida nazarda tutilgan tegishli huquqiy zamanni yaratish borasidagi muhim qadam bo'ldi. Ushbu qonun taraqqiyotimizni kafolatlovchi, uni yanada jadallashtiruvchi yangi g'oya, yangi kashfiyotlar, ilmiy ishlanmalarni yaratish hamda hayotga joriy etilishining ishochli huquqiy

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyulda "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni

mexanizmlarini mustahkamlab benihoya muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunda ifodalangan ta'rifga, ko'ra innovatsiya – fuqarolik muomalasiga kiritilgan yoki shaxsiy ehtiyojlar uchun foydalaniladigan, qo'llanilishi amaliyatda katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga erishishni ta'minlaydigan yangi ishlanma. Innovatsion faoliyat esa, yangi ishlanmalarni tashkil etish, shuningdek ishlab chiqarish sohasida ularning o'tkazilishi va amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha faoliyatdir.

Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilariga ta`lim texnologiyalari, ularning didaktik imkoniyatlari, ilg'or interfaol metodlar, yangicha texnologik yondashuvlar haqida nazariy bilimlarni berish, ularda dars jarayonini tashkil etishda ta`lim texnologiyalaridan foydalanish malakalarini yanada rivoqlantirishda quyidagi shakl, metod va vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqligi keltirilgan:

a) ta`lim shakllari – ma`ruza, seminar, ilmiy-metodik seminar, davra suhbat, bahs-munozara, uchrashuv, ekskursiya, pedagogik vaziyatlarni hal qilish, rolli va ishchanlik o'yinlari, bellashuv va boshqalar;

b) ta`lim metodlari – manbalar bilan ishslash, suhbat, ko'rgazmalilik, mashqlantirish, muammoli vaziyatlarni hal qilish, og'zaki hikoya qilish, loyihalash, noan'anaviy metodlar – “Aqliy hujum”, “Qarorlar qabul qilish texnologiyasi”, “6x6x6”, “Klaster”, “Yalpi aqliy hujum”, “Fikrlarning shiddatli hujumi”, “Tajriba vositasida o'qitish”, “Meni tushun”, “Keys-stadi”, “baliq skleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Nilufar guli”, “Bumerang” va hokazolar;

v) ta`lim vositalari – o'quv manbalari (darslik), o'quv dasturi va qo'llanmalar, yordamchi materiallar – ishlanmalar, loyihalar, ilmiy, ilmiy-metodik va ilmiy-ommabop adabiyotlar, ko'rsatmali qurollar, texnik (slayd, magnitafon) va axborot (radio, televidenie, kompyuter) vositalari, gazeta va jurnallar, yangi tajribalar, sinf jihozlari (yozuv taxtasi, stol, stul), ish qog'ozlari, jamoa fikri va boshqalar.

Hamkorlikda o‘rganish modeli – talabalarning mustaqil guruhlarda ishlashi evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutadigan metodlardan iborat.

Modellashtirish modeli – real hayotda va jamiyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ixchamlashtirilgan va soddalashtirilgan ko‘rinishini sinfxonada yaratish va ularda talabalarning shaxsan qatnashishi va faoliyat evaziga ta’lim olishini ko‘zda tutuvchi metodlardan iborat.

Tadqiqot modeli – talabalar tomonidan muammoni tushunish va yechish, mustaqil bilim olishni kuchaytirilgan va shunga undaydigan usullar yig‘indisidan iboratdir.

Quyida ta’lim texnologiyalari bo‘yicha metodlar tizimiga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Metod – (grekcha “Metodos” so‘zidan olingan bo‘lib, izlanish yoki bilish yo‘li, nazariya, ta’limot ma’nosini anglatadi) aniq vazifani yechishga bo‘ysundirilgan, bog‘liqlikni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish operatsiyalarining yoki yo‘llarining yig‘indisi.

Ta’lim metodi – bu ta’lim oluvchi va ta’lim beruvchining ma’lum o‘quv maqsadlariga qaratilgan, birgalikda faoliyatini tashkil qilishning muayyan tizimga solingan yo‘l – yo‘rig‘i hisoblanadi.

Chaqiriqqacha harbiy ta’limda o‘qitiladgan fanlarni takomillashtirish, jumladan, pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, bu borada samaradorlikka erishish, mazkur o‘quv yurtlarining mustahkam moddiy-texnik bazasini yaratish orqali zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta’minalash, shuningdek, yuksak malaka, pedagogik mahorat hamda chuqur mutaxassislik bilimlariga ega bo‘lgan harbiy pedagog kadrlar bilan ta’minalash kabi masalalarga jiddiy e’tibor qaratishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi T.: “O‘zbekiston”. – 2021
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-iyulda “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni T.: “Toshkent”. – 2020 y.
3. Sh.M.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102 b.
4. Yangi pedagogik texnologiya. Ma’ruzalar matni. 2016 38-41 betlar
5. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Holiqova, Interfaol metodlar: mohiyati va qo’llanilishi. Metodik qo’llanma. TDPU nashriyoti, 2013. – 136 bet.